



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 30-aprel

105-5-0-Q/25

Navoiy viloyati hokimligi

Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, hududlarda “Andijon tajribasi”ni joriy qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida

Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, tadbirkorlarga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, har bir tuman (shahar)ni ixtisosligidan kelib chiqib rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish hamda “Andijon tajribasi”ni hududlarda joriy qilish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbaligida joriy yilning 16-aprel kuni o‘tkazilgan yig‘ilishdagi topshiriqlar va belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

2025-yilda hududlarning iqtisodiy barqarorligini ta‘minlash bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar 1-ilovaga muvofiq;

2025-yilda aholini daromadli mehnat bilan ta‘minlashning maqsadli ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq;

2025-yilda aholini kambag‘allikdan chiqarishning maqsadli ko‘rsatkichlari 3-ilovaga muvofiq;

2025-yilda ishsizlik va migratsiya darajasini pasaytirish hamda kambag‘allikni qisqartirishning maqsadli ko‘rsatkichlari 4-ilovaga muvofiq;

2025-yil viloyatda tijorat banklari tomonidan kambag‘allikni qisqartirish, aholi bandligini ta‘minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan ishlar reja ko‘rsatkichlari 5-ilovaga muvofiq;

2025-yil viloyatda xizmatlar sohasida 50 ming kishini daromadli mehnat bilan ta'minlash hamda xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etishning maqsadli ko'rsatkichlari 6-ildavaga muvofiq;

2025 yilda ommaviy auksion savdolariga chiqarilishi rejalashtirilgan davlat aktivlari hamda qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer maydonlari 7-ildavaga muvofiq;

2025 yilda investitsiya dasturlari doirasida amalga oshiriladigan loyihalar yig'ma parametrlari 8-ildavaga muvofiq;

2025-yilda o'zlashtiriladigan xorijiy investitsiyalarning maqsadli ko'rsatkichlari 9-ildavaga muvofiq;

yo'l infratuzilmasi va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha ishlarning manzilli dasturi 10-ildavaga muvofiq;

ijtimoiy soha obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash bo'yicha ishlarning manzilli dasturi 11-ildavaga muvofiq;

qishloq va suv xo'jaligi sohasida 2025 yilda amalga oshiriladigan ishlar rejasi 12-ildavaga muvofiq;

2025 yilda ijtimoiy sohada amalga oshiriladigan ishlar rejasi 13-ildavaga muvofiq;

2025 yilda sayyohlarni jalb qilish, turistik xizmatlar eksportini oshirish ko'rsatkichlari 14-ildavaga muvofiq;

hududlarni kompleks rivojlantirish, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish va "Andijon tajribasi"ni joriy qilish bo'yicha "Yo'l xaritasi" 15-ildavaga muvofiq tasdiqlansin.

Viloyat hokimining o'rinbosarlari R.D.Sulaymonov, E.I.G'afforov, S.N.Hikmatov, J.B.Xodjayev va S.Mirzayev o'z yo'nalishlari bo'yicha mazkur asosiy ko'rsatkichlarga erishish uchun shaxsan mas'ul etib belgilansin.

3. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (R.Sulaymonov) viloyat soliq boshqarmasi (S.Nazarov), Savdo-sanoat palatasining viloyat boshqarmasi (D.Shakarov), tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda 2025-yilda aylanmasi 100 milliard so'mdan oshgan tadbirkorlar sonini 15 taga, 200 milliard so'mdan oshgani soni 6 taga yetkazish choralarini ko'rsin.

4. Mazkur qarorning 6-ildavasi bilan tasdiqlangan xizmatlar sohasida 50 ming kishini daromadli mehnat bilan ta'minlash hamda xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etishning maqsadli ko'rsatkichlarining bajarilishiga viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (G'.Boboqulov), TIF "Milliy bank" viloyat boshqarmasi (H.Amonov) hamda tuman (shahar) hokimliklari shaxsan mas'ul ekanligi belgilab qo'yilsin.

Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Sulaymonov) tegishli mas’ullar ishtirokida xizmatlar sohasini rivojlantirishning asosiy ko‘rsatkichlari ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni har oyda tanqidiy muhokama qilib borsin.

5. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari (R.Sulaymonov, S.Hikmatov), Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (O.Sadinov), Markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasi (X.Pardayev) tumanlar hokimliklari bilan birgalikda:

o‘n kun muddatda viloyatda mavjud trassa bo‘yidagi zovurlarni xatlovdan o‘tkazib, xizmat ko‘rsatish bo‘yicha loyihalarni tashkil etish uchun tadbirkorlarga taklif qilsin;

loyiha tashabbuskorlari bilan birgalikda 2025-yil yakunigacha “Oltinko‘l tajribasi” asosida savdo-servis loyihalarini tashkil etish choralari ko‘rsin.

6. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Sulaymonov), Markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasi (X.Pardayev) tijorat banklari hamda Karmana, Qiziltepa, Navbahor va Xatirchi tumanlari hokimliklari bilan birgalikda:

2025-yilning 15-mayiga qadar aholi xonadonlarini issiqxonachilikka ixtisoslashtirish uchun har bir tumanda 3 tadan mahallalar ro‘yxatini;

2025-yilning 15-iyuniga qadar tanlangan mahallalarda issiqxona qilish istagida bo‘lgan talabgorlar ro‘yxatini shakllantirsin;

2025-yilning 1-iyulidan 1-sentabrgacha bo‘lgan muddatda talabgorlarga o‘rnatilgan tartibda zaruriy kredit mablag‘lari ajratilishi hamda issiqxonalar tashkil etilishini ta’minlasin.

7. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Sulaymonov), Davlat aktivlarini boshqarish agentligining viloyat boshqarmasi (N.Atajanov), Kadastr agentligining viloyat boshqarmasi (D.Nishonov), Savdo-sanoat palatasining viloyat boshqarmasi (D.Shakarov) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda:

mazkur qarorning 7-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan 2025-yilda ommaviy auksion savdolariga chiqarilishi rejalashtirilgan davlat aktivlari hamda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlarini ommaviy auksion savdolariga chiqarilishini hamda yangi loyihalarni amalga oshirish maqsadida doimiy ravishda tadbirkorlarga taklif qilib borilishini ta’minlasin.

Bunda, auksionga chiqarilganda tibbiyot va ta’lim tashkilotlariga tegishli bo‘sh yer va binolar faqat “profili”ni o‘zgartirmaslik sharti bilan berilishiga alohida e’tibor qaratsin.

Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har oyda viloyat hokimiga axborot kiritib borilsin.

8. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Sulaymonov) viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (L.Xayrullayev), Markaziy

bankning viloyat bosh boshqarmasi (X.Pardayev), “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Navoiy filiali (O.Rayimov), tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida 31 ta og‘ir mahallalarda qurilgan tik quduqlar (artezian)ni uzluksiz elektr energiyasi bilan ta‘minlash maqsadida, ushbu quduqlarga quyosh panellarini o‘rnatish bo‘yicha zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

9. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari (R.Sulaymonov, S.Hikmatov), viloyat Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (A.Rashidov), Mahallalar uyushmasining viloyat boshqarmasi (G‘.Aliyev), viloyat kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (L.Xayrullayev), Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi (X.Pardayev) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda bir oy muddatda mahallalardagi yo‘llar (ko‘cha)ni hatlovdan o‘tkazib, ular atrofida havozaalar tashkil qilish orqali uzum ekishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 2025-yilga mo‘ljallangan manzilli dasturini tasdiqlash uchun viloyat hokimligiga kiritсин.

10. Viloyat hokimining o‘rinbosari (S.Hikmatov), viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (A.Rashidov), Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (O.Sadinov), viloyat kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (L.Xayrullayev), Markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasi (X.Pardayev) Karmana, Konimex, Qiziltepa, Navbahor va Xatirchi tumanlari hokimliklari bilan birgalikda o‘n kun muddatda hududlardagi zovurlarni xatlovdan o‘tkazib, 2025-yilda ular atrofida 25 ming boshga mo‘ljallangan o‘rdakchilik loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha manzilli dasturini tasdiqlasin.

Bunda, tashkil etiladigan loyihalar doirasida zovurlar atrofidagi yerlarni kambag‘al oilalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijaraga berish hamda imtiyozli kreditlar ajratish orqali ularni bandligini ta‘minlashga e‘tibor qaratsin.

11. Karmana tumani hokimligi (V.Adizov) 2025-yil 1-mayga qadar Andijon viloyatiga xizmat safari tashkil etib, viloyatda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha o‘zaro tajriba almashgan holda tumanda 2025-yilda zamonaviy mebelchilik markazini tashkil etilishni ta‘minlasin.

12. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Sulaymonov), viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (G‘.Boboqulov), tuman (shahar) hokimliklari:

viloyatda 2025-yil birinchi bosqichida sanoat, qishloq xo‘jaligi hamda xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlarida tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi bandligini ta‘minlashga turtki beruvchi 22 ta drayver loyihalarni amalga oshirilishini;

ushbu amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida yaratilayotgan ish o‘rinlarini yangi ish.mehnat.uz platformasiga kiritib borilishini ta‘minlasin.

13. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Sulaymonov), viloyat kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (L.Xayrullayev), Markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasi (X.Pardayev) Karmana (V.Adizov), Konimex (R.Ro‘ziyev), Qiziltepa (B.Bobomurodov), Navbahor (A.O‘roqov) va Xatirchi (U.Adizov) tumanlari hokimliklari hamda tijorat banklari bilan birgalikda:

2025-yilda 200 gektar maydonda “Bir kontur - bir mahsulot” tamoyili asosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni yo‘lga qo‘yish orqali aholi bandligini ta’minlasin;

aholiga ijaraga berilgan yer maydonlarida “Bir kontur - bir mahsulot” tamoyili asosida Andijon tajribasidan kelib chiqib, Karmana, Qiziltepa, Navbahor va Xatirchi tumanlarida gulchilik faoliyati bilan shug‘ullanadigan tadbirkor va fuqarolarni keng jalb qilgan holda 2025-yilda gulchilik yo‘nalishida loyihalar tashkil etilishini ta’minlasin.

14. Viloyat hokimining o‘rinbosari (E.G‘afforov) viloyat investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (R.Azimov), tuman (shahar) hokimlari bilan birgalikda:

joriy yilda umumiy qiymati 15,7 trln so‘mlik 545 ta investitsiya loyihalarini amalga oshirish, ular hisobiga 9 220 ta doimiy ish o‘rinlari yaratish choralari ko‘rsin;

joriy yilda 3,0 mlrd.dollarlik xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirilishi ta’minlash bo‘yicha 54 ta loyiha doirasida 1,4 mlrd.dollar investitsiya o‘zlashtirilishi hamda 1,6 mlrd.dollarlik 29 ta istiqbolli loyihalarga xorijiy investorlarni jalb etsin.

Bunda:

joriy yilda viloyat delegatsiyasining Rossiya, Xitoy, Turkiya hamda boshqa xorijiy davlatlarga amalga oshiriladigan xizmat safarlari davomida erishiladigan investitsiya kelishuvlari asosida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalariga tuman (shahar) hokimlari va ularning tegishli o‘rinbosarlari shaxsan mas’ul ekanligi ko‘rsatib o‘tilsin;

investitsiya jozibadorligini oshirish hamda hududning mavjud salohiyatidan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi elchixonalari bilan hamkorlikda xorijiy hamkor ishtirokida aniq manzilli investitsiya loyihalar ro‘yxatini shakllantirish;

yil yakuniga qadar har bir hudud kamida 4 tadan xorijiy moliya institutlari tomonidan moliyalashtiriladigan (davlat kafolatisiz) investitsiya loyihalarini portfelini shakllantirib, xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirish;

xorijiy xizmat safarlari davomida hududga zarur bo‘lgan kamida bitta grant loyihalarga donor tashkilotlarni jalb qilish choralari ko‘rsin.

15. Viloyat hokimining o‘rinbosari (E.G‘afforov), viloyat investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (R.Azimov), tuman (shahar) hokimlari:

joriy yilda yangi 20 dan ortiq eksportyor korxonalarni jalb etib, 15 turdan ortiq yangi mahsulotlarni eksportga chiqarish orqali viloyatda 1351,0 mln.dollarlik mahsulotlar eksportini amalga oshirsin;

viloyatda qiymati 5,8 mlrd.dollarlik yirik xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilishi hisobiga 1,8 mlrd.dollarlik mahalliy mahsulotlar, shundan 2025-yilda 413 mln. dollarlik mablag'lar o'zlashtirilishi natijasida 377 mln. dollarlik mahalliy mahsulotlar xarid qilinishini ta'minlash choralarini ko'rsin;

“Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi direksiyasi (M.Murodullayev), “Kichik va yoshlar sanoat zonalarini boshqarish bo'yicha yagona direksiyasi” (Yu.Matlabov) bilan birgalikda joriy yilda qiymati 510,8 mlrd. so'mlik 40 ta loyihalarni ishga tushirib, 515 ta yangi ish o'rinlarini yaratilishini ta'minlasin.

16. Viloyat hokimining yordamchisi (G'.Yaxshilikov), viloyat investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (R.Azimov), tuman (shahar) hokimliklari:

viloyat importi va mavjud zaxiralar tahlili asosida yil yakuniga qadar MahalliyLashtirish dasturi doirasida import o'rnini bosuvchi mahsulot turlarini 165 taga va ishlab chiqarish hajmini 200 mln. dollarga yetkazish choralarini ko'rsin.

Bunda, mahalliyLashtirish dasturining asosiy ko'rsatkich parametrlari past bo'lgan Xatirchi, Nurota, Konimex, Navbahor, Tomdi, Uchquduq tumanlari hamda Zarafshon va G'ozg'on shaharlari ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratsin;

shahar va tumanlardagi mahalliy sanoat korxonalari va yirik tarmoq korxonalari o'rtasida sanoat kooperatsiya aloqalarini yanada kengaytirib, hamkorlik savdo hajmlarini 4,0 trln.so'mga yetkazish choralarini ko'rsin.

Bunda, Hukumat komissiyasining 49-sonli bayoni asosida hududlarda o'tkazilayotgan tarmoqlararo sanoat yarmarkasida tadbirkorlik subyektlari ishtirokini oshirib, ular o'rtasida hamkorlik shartnomalari tuzilishiga ko'maklashishga e'tibor qaratilsin;

tarmoqlar va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida kooperatsiya aloqalarini kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan “Andijon tajribasi”ni o'rganish va ma'qullarini joriy etish maqsadida Navoiy viloyati tadbirkorlik subyektlari bilan Andijon viloyatiga tashrif buyurish, shuningdek Andijon viloyati korxonalari bilan kooperatsiya aloqalarini yo'lga qo'yish imkoniyatlarini o'rganishni tashkil qilsin.

17. Viloyat hokimining o‘rinbosari (S.Hikmatov), viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (A.Rashidov), tuman hokimlari 2025-yil yakuniga qadar viloyatda 20 ming gektar *(1,4 ming gektar sug‘oriladigan maydonlarni qayta foydalanishga kiritish hisobidan, 3 ming gektar lalmi-yaylov yer maydonlariga suv chiqargan holda o‘zlashtirish hisobidan, 15,5 ming gektar lalmi-yaylov maydonlarga suv talab qilmaydigan ekinlarni ekish hisobidan)* yer maydonlarini o‘zlashtirish orqali qo‘shimcha 60 ming tonna mahsulot yetishtirish choralarini ko‘rsin.

18. Viloyat hokimining o‘rinbosari (S.Hikmatov), Agrosanoatni rivojlantirish agentligining viloyat bo‘limi (Sh.Jumaqulov), Xatirchi tumani hokimligi (U.Adizov) Xatirchi tumanida 2025-yil yakuniga qadar adirliklarda sanoat usulida 50 gektar intensiv bog‘ va uzumzor barpo etib, kambag‘al oilalarga “tayyor holda” topshirsin.

19. Viloyat hokimining o‘rinbosari (S.Hikmatov), O‘simliklar karantini va himoyasi agentligining viloyat boshqarmasi (T.Tursunov), tuman hokimlari mahallalarda 11 ta arzon urug‘ va mineral o‘g‘it yetkazib berish shoxobchalari faoliyatini 2025-yil yakuniga qadar yo‘lga qo‘yilishini ta’minlasin.

20. Viloyat hokimining o‘rinbosari (S.Hikmatov), viloyat Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (A.Rashidov), Agrosanoatni rivojlantirish agentligining viloyat bo‘limi (Sh.Jumaqulov), tuman hokimlari 2025-yilda 7 ming gektar samarasiz bog‘ va tokzorlarni buzib, eksportbop mevali daraxtlar va tokzorlar ekish choralarini ko‘rsin.

21. Viloyat hokimining o‘rinbosari (S.Hikmatov), Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (O.Sadinov) bir hafta muddatda viloyatning suv oqimi yuqori bo‘lgan ariq va kanallarida 3,3 MVt quvvatga ega kichik va mikro GESlar qurish uchun joylarni belgilasin.

22. Viloyat hokimining o‘rinbosari (S.Hikmatov), viloyat Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi (O.Nizamov), Navbahor tuman hokimligi (A.O‘roqov) 2025-yil yakuniga qadar Navbahor tumanida qiymati 19,2 mlrd.so‘mlik bo‘lgan intensiv usulda baliq yetishtirish loyihalarini ishga tushirsin.

23. Viloyat hokimining o‘rinbosari (S.Hikmatov), Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (A.Rashidov), Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (O.Sadinov), tuman hokimlari 2025-yilda viloyatda suvni tejash hamda yuqori hosildorlikka erishish maqsadida 15 ming gektar maydonlarda lazerligi tekislashni amalga oshirsin.

24. Viloyat hokimining o‘rinbosari (S.Hikmatov), O‘simliklar karantini va himoyasi agentligining viloyat boshqarmasi (T.Tursunov), tuman hokimlari 2025-yil kuz oyida 400 gektar dala chetlari va kanal-kollektorlar atrofida mevali daraxtlar hamda qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekilishini ta’minlasin.

25. Viloyat hokimining o‘rinbosari (S.Hikmatov), viloyat Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (A.Rashidov), Agrosanoatni rivojlantirish agentligining viloyat bo‘limi (Jumaqulov), tuman hokimlari 2025-yil yakuniga qadar 900 gektar maydonlarda yangidan bog‘ va tokzorlar barpo etsin.

26. Viloyat hokimining o‘rinbosari (S.Hikmatov) 2025-yilda:

viloyat Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (A.Rashidov), Karmana tuman hokimligi (V.Adizov) bilan birgalikda Karmana tumanida “Zarafshon golden group” MCHJ tomonidan 4 gektar maydonda Respublikada kamyob va foydali bo‘lgan qiymati 800 ming dollar “Buta mevasi” (golubika) yetishtirish hamda 1,5 gektar maydonda qiymati 4 mln.dollar zamonaviy ekopark loyihalarini;

viloyat Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi (O.Nizamov), Xatirchi tuman hokimi (U.Adizov) bilan birgalikda Xatirchi tumanida “Klaster Xatirchi parranda” MCHJ tomonidan loyiha qiymati 6,0 mlrd so‘mlik 100 ming bosh parrandani parvarishlash va 300 ming bosh parrandani so‘yish quvvatiga ega bo‘lgan parrandachilik kompleksini;

viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi (O.Nizamov), Karmana tuman hokimligi (V.Adizov) bilan birgalikda Karmana tumani “Do‘stlik” agrofirkasida yillik quvvati 240 ming dona inkubatsiya sexini;

viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi (O.Nizamov), Qiziltepa tuman hokimligi (B.Bobomurodov) bilan birgalikda Qiziltepa tumanida “Zarafshon bo‘rdoqichilik” MCHJ tomonidan loyiha qiymati 18 mlrd.so‘mlik 350 ming bosh broiler go‘sht yo‘nalishida parrandachilik komplekslarini ishga tushirish choralarini ko‘rsin.

27. Viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi (A.Niyozov), Avtomobil yo‘llari hududiy boshqarmasi (A.Xalimov), “Navoiy suv ta‘minoti” MCHJ (O.Zaripov), “Yagona buyurtmachi xizmati” DUK (A.Turdiyev) rahbarlari qarorning 10-11-ilovalaridagi muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash hamda ijtimoiy soha obyektlarini qurilish va ta‘mirlash obyektlarini o‘z vaqtida, sifatli va to‘liq amalga oshirilishi, ajratilgan mablag‘lar maqsadli hamda samarali sarflanishini ta‘minlash uchun shaxsan javobgar etib belgilansin.

28. Viloyat hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi (A.Niyozov), Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat inspeksiya (Z.Botirov) hududlarda va “Yangi Navoiy shaharchasida” hamda “Yangi O‘zbekiston” massivlarda joriy yil yakuniga qadar 5500 ming xonadonli 69 ta ko‘p qavatli uy-joylarni qurib foydalanishga topshirish choralarini ko‘rsin.

Bunda, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida hududiy nazorat inspeksiya qurilayotgan ko'p kvartirali uy-joylarni qurilishi ustidan doimiy nazorat olib borsin.

29. Viloyat hokimining qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari, Avtomobil yo'llari hududiy bosh boshqarmasi (A.Xalimov) byudjet mablag'lari hisobidan 446 km avtomobil yo'llari, 12 ta ko'priklar va sun'iy inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha tizimli ishlar olib borsin.

Bunda, obyektlarni loyiha-qidiruv hamda qurilish-pudrat tashkilotlarini "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi orqali amalga oshirish alohida nazoratga olinsin.

30. Viloyat hokimining qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari, "Navoiy suv ta'minoti" MCHJ (O.Zaripov):

dasturlar doirasida qurilayotgan 78 km ichimlik va oqova suv obyektlarini hamda 1 dona suv inshootini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari ustidan doimiy nazorat olib borsin;

bir hafta muddatda shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda sohaga energiya tejamkor hamda ilg'or raqamli texnologiyalar joriy etish hamda hududlardagi ichimlik suvi obyektlariga 2,5 MVt quyosh panellarini o'rnatish bo'yicha takliflarni ishlab chiqib, viloyat hokimligiga kiritsin.

o'n kun muddatda viloyatning ichimlik suv ta'minoti og'ir bo'lgan mahallalarni sifatli ichimlik suv ta'minotini yo'lga quyish bo'yicha dastur ishlab chiqib, tasdiqlash uchun viloyat hokimiga kiritsin.

31. Viloyat hokimining qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari, Transport boshqarmasi (B.Raximov):

hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan tashuvchilar tomonidan yo'nalish ko'rsatkichlari bajarilishini monitoring qilish, bajarilgan ish hajmi va sifatini aniqlash hamda baholash, yo'lkira haqi to'lanishini va ko'rsatilgan xizmatlar sifatini nazorat qilish uchun avtomatlashtirilgan dispetcherlik boshqaruvi va nazorat tizimini to'liq ishga tushirsin;

bir oy muddatda "O'zmilliybank" AJ Navoiy filiali (H.Amonov) bilan birgalikda 42 ta avtobuslarni Xitoy Xalq Respublikasidan olib kelsin hamda 5 ta yangi yo'nalish ochish choralarini ko'rsin;

bir hafta muddatda viloyat Ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (X.Raxmatov), viloyat Soliq boshqarmasi (S.Nazarov) bilan birgalikda hududlarda noqonuniy faoliyat ko‘rsatib kelayotgan avtoshohbektatlarni faoliyatiga chek qo‘yish choralari ko‘rsin.

32. “O‘zenergoinspeksiyasi” Navoiy viloyat boshqarmasi (B.Shomurodov), “Hududgaz Navoiy” gaz ta‘minoti filiali (M.Normamatov), “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Navoiy filiali (O.Rayimov), “Milliy elektr tarmoqlari” AJ Navoiy filiali (A.Ro‘ziyev) har oyda yoqilg‘i-energetika resurslarini yo‘qotishlarini tahlil asosida, ular eng ko‘p bo‘lgan mahallalarda, hududlarda yoqilg‘i-energetika resurslari yo‘qotishlarini kamaytirish ishlarini “mahallabay” tashkil etish choralari ko‘rsin.

33. Viloyat hokimining o‘rinbosari (J.Xodjayev), viloyat Maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmasi (R.Hayitova), tuman (shahar) hokimliklari:

viloyat aholisining demografik o‘rishini inobatga olib, 85 ta mahallada qamrov darajasining viloyat ko‘rsatkichidan past ekanligi hamda maktabgacha ta‘lim tashkilotida bolalarni qabul qilinishi uchun onlayn navbatda turgan bolalar sonini qisqartirish maqsadida tadbirkorlarni jalb qilgan holda bo‘sh turgan binolarda 5 ta davlat xususiy sheriklik (DXSH) va 31 ta oilaviy maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini ochish orqali yil yakuniga qadar viloyatda qamrov darajasini 86,5 foizga yetkazish chora-tadbirlarini ko‘rsin;

tuman, shahar markazlarida joylashgan 20 ta, qishloq hududlarida joylashgan 60 ta maktablarni bir smenadagi ixtisoslashuvi asosida, maktablarda mehnat darslari va kasbiy to‘garaklar tashkil etib, ushbu to‘garaklarga sanoat, savdo va servis korxonalari, klasterlar mutaxassislarini jalb etsin.

34. Viloyat hokimining o‘rinbosari (J.Xodjayev), viloyat Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (F.To‘xtayev) oliy ta‘lim rektorlari bilan birgalikda o‘rta bo‘g‘in kadrlarni bandligini ta‘minlash maqsadida 25 ta texnikumning 11,3 ming nafar o‘quvchilaridan 1,5 ming (12 foiz) nafari hamda oliy ta‘limning 30 ming nafar talabasidan tibbiyot, texnika, pedagogika va qishloq xo‘jaligi sohasidagi 1,4 ming (4,6 foiz) talabasini dual ta‘lim bilan qamrab olish chora-tadbirlarini ko‘rsin.

Kasbiy ta‘lim muassasalaridagi bo‘sh turgan binolarda dual ta‘limni tashkil etish sharti bilan yirik tadbirkorlarga imtiyozli kredit ajratish orqali ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va bu orqali ushbu ta‘lim muassasasi bitiruvchilari bandligini ta‘minlash yuzasidan zaruriy chora-tadbirlarni ko‘rsin.

35. Viloyat hokimining o‘rinbosari (J.Xodjayev), Yoshlar ishlari agentligining viloyat boshqarmasi (U.Bahromov), viloyat Maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmasi (R.Hayitova), shahar va tuman hokimliklari:

joriy yil yakuniga qadar intellektual salohiyatli yoshlarni aniqlash maqsadida, uch bosqichli (mahalla - ta'lim muassasasi – tuman (shahar) – viloyat) “Intellektual o‘yinlar marafoni”ni tashkil etsin;

viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (L.Xayrullayev) bilan birgalikda 2025-yil yakuniga qadar 12 ming nafar ishsiz yoshlar va bitiruvchilar bandligini ta'minlash hamda AT “Aloqabank” tomonidan 58 mlrd so‘m kredit ajratish orqali 1000 dan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratish choralari ko‘rilsin;

1571 nafar alohida ishlash talab etiladigan yoshlar bilan huquq-tartibot va mudofaa organlari tomonidan individual ishlash orqali yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik salmog‘ini kamaytirish chora-tadbirlarini ko‘rsin;

816 nafar yoshlarni kasb-hunar, tadbirkorlik va zamonaviy kasblarga o‘qitish orqali bandligi ta'minlasin;

yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘rgatish, sun‘iy intellekt va robototexnika bo‘yicha o‘qitish ishlarini jadallashtirsin;

o‘n besh kun muddatda san‘atning rassomchilik yo‘nalishi bo‘yicha eng iqtidorli yoshlarni aniqlash va iste’dodlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida “Yosh rassomlar festivali”ni o‘tkazish bo‘yicha “Chora-tadbirlar rejasi”ni ishlab chiqib, ijroga qaratsin;

joriy yilning 2-choragida faoliyat yuritayotgan o‘quv markazlari o‘rtasida o‘zaro tajriba almashish, yoshlarni xorijiy tillarni o‘qitishga yanada keng imkoniyatlar yaratish maqsadida “O‘quv markazlar va xorijiy tillar forumi”ni tashkil etsin.

36. Viloyat hokimining o‘rinbosari (J.Xodjayev), viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (N.Safoyev):

respublika o‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish markazining Navoiy filialida 50 dan ziyod ilg‘or uslubiy va simulyasion texnologiyalar asosida 6 mingga yaqin o‘rta tibbiyot xodimlari malakasini oshirish orqali 4,8 ming nafariga malaka toifa olishini ta'minlasin;

2025-yil yakuniga qadar viloyatdagi barcha davlat tibbiyot muassasalarida zamon talabiga asosan davlat tibbiy sug‘urta mexanizmlarini to‘liq joriy etsin.

37. Viloyat hokimining o‘rinbosari (J.Xodjayev), viloyat Sport boshqarmasi (J.Murtozayev), viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (N.Safoyev), viloyat Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (R.Hayitova):

joriy yilda umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni tibbiy ko‘riklardan o‘tkazish jarayonida ularning fiziologiya va antropometriya holatiga baho berish orqali sport turiga bo‘lgan qobiliyatini aniqlash va sportga yo‘naltirish bo‘yicha elektron tizim yo‘lga qo‘yish va bu orqali sport maktablarida doimiy shug‘ullanuvchilar sonini 30 ming nafarga yetkazsin;

o'n kun muddatda Navoiy shahar 1-son hamda 2-son sport maktablari hududida bo'sh turgan va bugungi kunda foydalanilmayotgan yer maydonlaridan samarali foydalanish maqsadida davlat xususiy sherikchilik asosida "Sport va maishiy xizmat ko'rsatish" majmualari barpo etish bo'yicha taklif kiritsin.

38. Viloyat hokimining o'rinbosari (S.Mirzayev), viloyat Turizm boshqarmasi (K.Normamatov), tuman (shahar) hokimlari 2025 yil yakuniga qadar viloyatga 3,0 mln nafar sayyohlar, shundan 500 ming nafar xorijiy sayyohlar kelishini ta'minlab, turistik xizmatlar eksportini 150,0 mln dollarga yetkazsin.

39. Viloyat hokimining o'rinbosari (S.Mirzayev), viloyat Turizm boshqarmasi (K.Normamatov), tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda joriy yilda viloyatda 62 ta (5 ta mehmonxona 55 ta oilaviy mehmon uylari va 2 ta boshqa joylashtirish vositalari) joylashtirish vositalari faoliyatini tashkil etish choralarini ko'rsin.

40. Viloyat hokimi o'rinbosari (S.Mirzayev), viloyat Turizm boshqarmasi (K.Normamatov), Xatirchi tumani hokimi (U.Adizov), Nurota tumani hokimi (A.Fayziyev), Konimex tumani hokimi (R.Ro'ziyev):

bir hafta muddatda Xatirchi, Nurota, Konimex tumanlarining turizm salohiyati yuqori bo'lgan tog'li, sahro va cho'l hududlari, suv omborlari va boshqa suv havzalarida 2025-yil turizmni kompleks rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xarita"larini tasdiqlasin;

joriy yilda Xatirchi, Nurota, Konimex tumanlarida 70 ta kapsula va modulli joylashtirish vositalari faoliyatni yo'lga qo'yilishini ta'minlasin.

41. Viloyat hokimining o'rinbosari (S.Mirzayev), viloyat Turizm boshqarmasi (K.Normamatov), viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (G'.Boboqulov), 2025-yilda ajratilgan 1 milliard.so'm mablag'lar hisobidan milliy kontent ishlab chiqqan holda xalqaro turizm yarmakalari va "Road Show"larda ishtirok etib, viloyatning turizm salohiyatini targ'ib qilsin.

42. Viloyat hokimining o'rinbosari (S.Mirzayev), viloyat Turizm boshqarmasi (K.Normamatov), tuman (shahar) hokimlari har oyni bitta "shanba va yakshanbasi"- "oila va kollektiv bilan sayohatga chiqish" kuni hamda "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturi doirasida 830 ming nafar mahalliy aholining respublika bo'ylab ichki sayohatlarini tashkil etish choralarini ko'rsin.

43. Viloyat hokimining o'rinbosari (S.Mirzayev), viloyat Turizm boshqarmasi (K.Normamatov), Konimex tumani hokimi (R.Ro'ziyev) 2025-2026 yillarda Konimex tumani "Yangig'ozg'on" OFYni turizm infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha takliflarini ishlab chiqish hamda turizm klasteri bilan bog'lagan holda yangi turdagi xizmatlarini ko'paytirish hisobiga "Turizm ovuli" maqomini olish choralarini ko'rsin.

Bunda, “Yangig‘ozg‘on” OFYga keladigan har bir sayyoh uchun turizm klasteri tomonidan ajratiladigan mablag‘lar hisobidan ovulda yangi ish o‘rinlari yaratish, turizm xizmatlarini rivojlantirishni rag‘batlantirish taklifiga rozilik berilsin.

44. Viloyat hokimining o‘rinbosari (S.Mirzayev), Madaniy meros agentligining viloyat boshqarmasi (B.Raxmatov), 2025-2026 yillarda Qiziltepa tumanidagi “Qo‘rg‘on”, “Qal‘ai Azizon”, “Xo‘ja Mashrifat Nabiy” arxitektura yodgorliklari, Nurota tumanidagi “Hasan Husan” ziyoratgohi, Eshon Sudur hammomini restavratsiya qilish va tiklash hamda “Nur qal‘asi” arxeologiya yodgorligini muzeylashtirish choralari ko‘rsin.

45. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari (J.Xodjayev, M.Mamadiyarova) viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (A.Tasbayev), Mahallalar uyushmasining viloyat boshqarmasi (G‘.Aliyev), tuman (shahar) hokimliklari va boshqa aloqador idoralar bilan birgalikda:

mahallalarda yoshlar, ayollar va ishsizlar tomonidan, shuningdek oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishda “mahalla yettiligi” har bir vakilining aniq mas‘uliyatini belgilash, ushbu toifadagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga yangicha ish uslublarini tatbiq qilish;

aholining huquqiy ongi, ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas‘uliyatini oshirish, jinoyat sodir etilishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy muammolarni hal etishga jamoatchilik vakillari, nuroniylar va mahalla faollarini keng jalb etib borish;

mahallalar jamoat joylari va yashash xonadonlarida xavfsiz muhit yaratish, fuqarolar hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkiga har qanday tajovuzlarning oldini olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasiga zamonaviy raqamli texnologiyalar va texnik vositalarni keng joriy etish;

mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish bo‘yicha har bir mas‘ul idora va muassasa tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijalari yuzasidan qat‘iy so‘rov tizimini yo‘lga qo‘yish hamda ushbu masalaga mas‘uliyatsizlik bilan yondashgan rahbarlarga ta’sir choralari ko‘rib borish;

har bir hudud uchun tasdiqlangan tuman (shahar) mahallalarida kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish hamda huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish tizimining samaradorligini oshirish bo‘yicha manzilli chora-tadbirlarning “yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida ta’minlash topshirilsin.

46. Viloyat prokuraturasi (A.Mullajonov), viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (A.Tasbayev) har oy yakunida kriminogen vaziyat og‘ir va jinoyat sodir etilgan mahallalarda amalga oshirilayotgan ishlarning ahvoli va natijadorligi bo‘yicha barcha mas‘ul idora va muassasalar hamda tuman (shahar) hokimliklari bilan tanqidiy muhokamalar o‘tkazilishini hamda ushbu masalaga mas‘uliyatsizlik bilan yondashgan rahbarlarga nisbatan tegishli ta’sir choralari ko‘rib borsin.

47. Shahar va tuman hokimlari ikki kun muddatda joriy yiling 16 aprel kuni Davlat Rahbari boshchiligida o'tkazilgan yig'ilishda berilgan topshiriqlar ijrosini samarali tashkil qilish, "Andijon tajribasi"ni joriy qilish hamda mazkur qarordan kelib chiqib, o'zlarining qarorlarini mahallabay ishlab chiqib, ijrosini tashkil qilsin.

Viloyat hokimining o'rinbosarlari (R.Sulaymonov, E.G'afforov, S.Hikmatov, E.Xodjayev, S.Mirzayev) o'z yo'nalishlari bo'yicha tuman, shahar hokimliklarining qarorlarida belgilangan vazifalarni to'liq va o'z vaqtida ijro etilishiga amaliy ko'mak berib, shahar, tuman hokimlari bilan birgalikda qarorlarda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan har oyda viloyat hokimiga hisobot berib borsin.

48. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib viloyat hokimi o'rinbosarlari (R.Sulaymonov, E.G'afforov, S.Hikmatov, J.Xodjayev va S.Mirzayev), viloyat tashkilotlari rahbarlari hamda tuman (shahar) hokimlari belgilansin.

49. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Viloyat hokimi



N.Tursunov

Navoiy viloyati hokimining
2025-yil 30-apreldagi
105-5-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**2025-yilda hududlarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash bo'yicha
ASOSIY KO'RSATKICHLAR**

T/r	Hududlar	Yalpi hududiy mahsulot					
		yanvar-iyun (reja)		yanvar-sentabr (reja)		2025-yil (reja)	
		hajmi (mlrd.so'm)	o'sish sur'ati (%)	hajmi (mlrd.so'm)	o'sish sur'ati (%)	hajmi (mlrd.so'm)	o'sish sur'ati (%)
	Viloyat jami	57 268,4	105,9	91 708,5	106,0	127 086,5	106,1
1	Navoiy sh	x	x	x	x	x	x
2	Zarafshon sh	x	x	x	x	x	x
3	G'ozg'on sh	x	x	x	x	x	x
4	Karmana t	x	x	x	x	x	x
5	Konimex t	x	x	x	x	x	x
6	Qiziltepa t	x	x	x	x	x	x
7	Navbahor t	x	x	x	x	x	x
8	Nurota t	x	x	x	x	x	x

9	Tomdi t	x	x	x	x	x	x
10	Uchquduq t	x	x	x	x	x	x
11	Xatirchi t	x	x	x	x	x	x

davomi

T/r	Hududlar	Sanoat					
		yanvar-iyun (reja)		yanvar-sentabr (reja)		2025-yil (reja)	
		hajmi (mlrd.so'm)	o'sish sur'ati (%)	hajmi (mlrd.so'm)	o'sish sur'ati (%)	hajmi (mlrd.so'm)	o'sish sur'ati (%)
	Viloyat jami	71 815,4	106,0	114 698,8	105,9	164 544,5	106,0
1	Navoiy sh	60 365,5	105,5	96 352,6	105,2	138 659,0	106,1
2	Zarafshon sh	498,0	105,4	730,3	105,9	950,3	106,2
3	G'ozg'on sh	102,9	106,2	145,4	106,0	245,5	106,9
4	Karmana t	6 444,8	106,0	9 963,6	105,6	13 555,6	106,0
5	Konimex t	479,6	101,8	701,3	103,3	882,5	104,5
6	Qiziltepa t	907,6	105,9	1 296,9	105,1	1 816,5	106,9
7	Navbahor t	712,6	105,1	1 089,5	105,2	1 565,2	106,2
8	Nurota t	301,3	104,8	432,7	105,3	576,6	105,8

9	Tomdi t	47,1	104,0	68,7	104,0	96,7	105,9
10	Uchquduq t	291,1	105,5	445,0	105,8	599,0	106,0
11	Xatirchi t	1 154,9	105,0	1 662,9	103,5	2 364,0	106,0

davomi

T/r	Hududlar	Qishloq xo‘jaligi					
		yanvar-iyun (reja)		yanvar-sentabr (reja)		2025-yil (reja)	
		hajmi (mlrd.so‘m)	o‘sish sur‘ati (%)	hajmi (mlrd.so‘m)	o‘sish sur‘ati (%)	hajmi (mlrd.so‘m)	o‘sish sur‘ati (%)
	Viloyat jami	8 733,3	103,7	16 614,0	103,8	24 054,3	104,0
1	Navoiy sh	49,5	103,6	71,3	103,8	121,1	103,6
2	Zarafshon sh	44,0	103,4	71,5	103,8	93,0	103,7
3	G‘ozg‘on sh	70,4	103,5	93,7	103,5	115,5	103,5
4	Karmana t	1 237,0	103,8	2 222,3	103,9	2 353,6	104,3
5	Konimex t	506,9	103,8	919,8	103,6	1 328,6	103,6
6	Qiziltepa t	1 674,9	103,6	3 177,7	103,6	4 645,2	104,2
7	Navbahor t	1 369,9	103,8	2 645,6	103,7	3 732,0	103,6
8	Nurota t	615,7	103,8	1 589,8	103,9	3 141,3	103,5

9	Tomdi t	405,9	103,7	489,3	103,5	613,5	103,1
10	Uchquduq t	270,9	103,5	365,1	103,5	460,1	103,8
11	Xatirchi t	2 488,2	103,5	4 968,1	103,9	7 450,5	104,3

davomi

T/r	Hududlar	Qurilish ishlari					
		yanvar-iyun (reja)		yanvar-sentabr (reja)		2025-yil (reja)	
		hajmi (mlrd.so‘m)	o‘sish sur‘ati (%)	hajmi (mlrd.so‘m)	o‘sish sur‘ati (%)	hajmi (mlrd.so‘m)	o‘sish sur‘ati (%)
	Viloyat jami	4 804,4	108,2	10 287,4	109,0	13 423,3	107,7
1	Navoiy sh	817,5	106,5	1 162,6	106,7	1 597,9	105,8
2	Zarafshon sh	447,9	106,7	885,8	105,6	1 234,0	105,4
3	G‘ozg‘on sh	17,5	102,3	36,0	103,0	45,1	103,5
4	Karmana t	403,8	104,1	639,1	104,5	893,3	106,7
5	Konimex t	113,1	106,5	141,3	102,3	163,3	106,8
6	Qiziltepa t	790,7	103,1	1 321,5	103,4	1 595,4	108,7
7	Navbahor t	220,9	103,7	582,7	102,1	765,2	109,7
8	Nurota t	365,7	103,4	598,4	103,0	767,9	106,1

9	Tomdi t	1 129,9	101,7	1 606,8	102,0	1 733,6	102,3
10	Uchquduq t	140,1	102,8	232,3	104,1	280,8	106,8
11	Xatirchi t	357,1	106,7	555,3	105,0	753,9	107,7

davomi

T/r	Hududlar	Bozor xizmatlari					
		yanvar-iyun (reja)		yanvar-sentabr (reja)		2025-yil (reja)	
		hajmi (mlrd.so'm)	o'sish sur'ati (%)	hajmi (mlrd.so'm)	o'sish sur'ati (%)	hajmi (mlrd.so'm)	o'sish sur'ati (%)
	Viloyat jami	7 933,5	113,0	17 036,0	113,5	21 686,5	114,5
1	Navoiy sh	3 186,4	115,5	5 184,1	115,7	7 870,0	116,0
2	Zarafshon sh	1 056,8	111,7	1 667,5	111,9	2 170,3	115,2
3	G'ozg'on sh	21,8	112,2	36,9	113,1	46,3	113,5
4	Karmana t	1 084,2	111,5	1 660,0	113,5	2 218,1	113,4
5	Konimex t	177,1	110,1	274,8	111,1	376,8	111,4
6	Qiziltepa t	756,1	111,1	1 151,4	113,7	1 550,7	113,1
7	Navbahor t	423,1	111,1	653,0	112,0	885,7	113,1
8	Nurota t	307,6	108,6	477,0	109,2	656,2	109,6

9	Tomdi t	87,8	106,6	129,6	106,8	187,8	107,0
10	Uchquduq t	245,5	108,2	379,0	108,8	509,0	109,3
11	Xatirchi t	570,7	110,3	888,6	112,3	1 215,4	111,4

Navoiy viloyati hokimining
2025-yil 30-apreldagi
105-5-0-Q/25-son qaroriga
2-ilova

**Navoiy viloyatida 2025-yilda aholini daromadli mehnat bilan ta'minlashning
maqsadli ko'rsatkichlari**

T/r	Tuman/ shahar nomi	Aholi bandligini ta'minlash	Shundan							
			Investitsiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga	Tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga	Shundan				Qishloq xo'jaligi sohasida	Qurilish sohasida
					aholini doimiy ishga joylashtirish	shundan	aholini tadbirkorlikka jalb qilish	shundan		
						qishloq xo'jaligida		qishloq xo'jaligida		
	Jami:	140 000	9 220	96 116	39 578	10 907	56 538	16 359	29 697	4 967
1	Konimex t	8 414	340	5 652	2 855	787	2 797	809	2 118	304
2	Qiziltepa t	26 980	1 045	18 829	7 037	1 939	11 792	3 412	6 507	599
3	Navbahor t	23 913	720	16 054	7 054	1 944	9 000	2 604	6 611	528
4	Karmana t	22 791	3 466	14 532	5 532	1 524	9 000	2 604	4 240	553
5	Nurota t	8 718	544	6 162	2 500	689	3 662	1 060	1 599	413
6	Tomdi t	1 242	319	643	343	95	300	87	127	153
7	Uchquduq t	2 714	568	1 644	1 044	288	600	174	103	399
8	Xatirchi t	31 262	354	21 940	8 000	2 204	13 940	4 033	8 388	580
9	Navoiy sh	8 885	1 106	7 043	3 000	827	4 043	1 170	4	732

10	Zarafshon sh	4 337	624	3 163	1 963	541	1 200	347		550
11	G'ozg'on sh	744	134	454	250	69	204	59		156

Navoiy viloyati hokimining
2025-yil 30-apreldagi
105-5-0-Q/25-son qaroriga
3-ilova

**2025-yilda aholini kambag'allikdan chiqarishning
maqsadli ko'rsatkichlari**

T/r	Tuman/shahar nomi	Kambag'allikdan chiqariladiganlar		<i>Shundan</i>									
				Tadbirkorlarga doimiy ish o'rinlariga joylashtirish		Tadbirkorlikka jalb etish orqali		qishloq xo'jaligi yerlarini ijaraga berish orqali		kasb-hunarga o'rgatish orqali bandligini ta'minlash (aholi)		Boshqa yo'nalishlar hisobiga (aholi)	
		oila	aholi	oila	aholi	oila	aholi	oila	aholi	oila	aholi	oila	aholi
	Jami:	6 569	30 087	2 204	10 017	2 816	12 616	345	1 512	136	622	1 068	5 320
1	Konimex t	248	1 131	116	562	101	469	23	100	8	38		
2	Qiziltepa t	961	4 408	322	1 449	494	2 120	75	329	23	105	80	399
3	Navbahor t	831	3 804	336	1 523	401	1 855	73	315	16	74	5	24
4	Karmana t	825	3 781	234	1 057	250	1 075	69	303	13	59	256	1 276
5	Nurota t	795	3 644	326	1 467	432	1 988			14	63	21	107
6	Tomdi t	115	533	26	118	35	145			3	13	52	259
7	Uchquduq t	268	1 223	57	261	70	303			6	28	128	637
8	Xatirchi t	1 245	5 703	494	2 223	597	2 765	105	465	31	143	16	82
9	Navoiy sh	755	3 455	191	891	256	1 103			13	59	285	1 420

10	Zarafshon sh	453	2 076	86	391	128	548			8	35	221	1 100
11	G'ozg'on sh	73	329	16	75	52	245			1	5	4	16

Navoiy viloyati hokimining
2025-yil 30-apreldagi
105-5-0-Q/25-son qaroriga
4-ilova

**2025-yilda ishsizlik va migratsiya darajasini pasaytirish hamda
kambag'allikni qisqartirishning maqsadli ko'rsatkichlari**

T/r	Hudud nomi	Ishsizlik darajasi		Kambag'allik darajasi		
		2025-yil yakuniga reja		2025-yil yakuniga reja		
		Ishsizlar soni	ishsizlik darajasi, (%)	oila soni	aholi soni, ming nafar	kambag'allik darajasi (%)
	Viloyat bo'yicha	10 558	2,5	10 305	42	3,4
1	Navoiy shahri	Ishsizlikdan holi hudud		Kambag'allikdan holi hudud		
2	Zarafshon shahri	Ishsizlikdan holi hudud		Kambag'allikdan holi hudud		
3	Fozg'on shahri	Ishsizlikdan holi hudud		Kambag'allikdan holi hudud		
4	Karmana tumani	1112	2,8	1378	6	2,9
5	Konimex tumani	456	2,9	356	2	3,3
6	Qiziltepa tumani	1301	2,5	1555	6	3,6
7	Navbahor tumani	872	2,7	1178	5	3,7
8	Nurota tumani	887	2,9	956	4	4,5
9	Tomdi tumani	159	3,0	155	1	4,8
10	Uchquduq tumani	Ishsizlikdan holi hudud		Kambag'allikdan holi hudud		

11	Xatirchi tumani	2091	3,0	2 333	10	4,8
----	-----------------	------	-----	-------	----	-----

Navoiy viloyati hokimining
2025-yil 30-apreldagi
105-5-0-Q/25-son qaroriga
5-ilova

2025-yil viloyatda tijorat banklari tomonidan kambag‘allikni qisqartirish, aholi bandligini ta’minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan ishlar reja ko‘rsatkichlari

T/r	Tuman/shahar nomi	"Sayxunobod tajriba" Mikroloyixa		Tanlab olingan 10 tadan xonadonga yetkaziladigan loyiha paketlari	Dastur doirasida kredit ajratish rejasi (mlrd.so‘m)	Shundan (mlrd.so‘m)			
		soni	Bandligi ta’minlanadi	reja		"Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash" dasturi	"Biznesga birinchi qadam" dasturi	Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari	"Mahalla loyihasi" dasturi REJA (mlrd.so‘m)
	Jami:	13 200	26 400	3 300	1 078,9	245	154	225	455,2
1	Agro bank	3 280	6 560	328	85,4	37	28		20,6
2	Xalq bank	2 130	4 260	216	257,5	48	11	123	75,4
3	MKB	1 800	3 600	180	192,0	45	21	101	24,2
4	Milliy bank	2 000	4 000	200	150,1	22	13		115,5
5	SQB	720	1 440	72	91,1	17	15		59,2
6	Asaka bank	520	1 040	52	129,9	11	22		97,2
7	BRB	800	1 600	80	66,4	18	15		32,9

8	Turon bank	880	1 760	88	37,5	14	10		13,2
9	Aloqa bank	600	1 200	60	41,2	11	13		17,0
10	Boshqa banklar	470	940	44	27,7	22	6		
	Jami:	13 200	26 400	3 300	1 078,9	245	154	225	455,2
1	Konimex t	600	1 200	60	45,8	12	7	6	20,8
2	Qiziltepa t	2 120	4 240	212	164,7	44	14	38	68,7
3	Navbahor t	1 640	3 280	164	123,2	18	11	35	60,3
4	Karmana t	1 720	3 440	172	158,7	30	25	35	68,0
5	Nurota t	1 240	2 480	124	87,3	17	14	18	38,5
6	Tomdi t	320	640	32	15,5	4	3	2	6,1
7	Uchquduq t	560	1 120	56	42,1	10	6	9	17,5
8	Xatirchi t	2 800	5 600	280	169,7	40	17	46	66,8
9	Navoiy sh	1 440	2 880	144	163,5	42	42	14	64,9
10	Zarafshon sh	600	1 200	60	87,2	24	14	15	34,5
11	G'ozg'on sh	160	320	16	21,1	5	2	5	9,1

Navoiy viloyati hokimining
2025-yil 30-apreldagi
105-5-0-Q/25-son qaroriga
6-ilova

**2025-yilda xizmatlar sohasida 50 ming kishini daromadli mehnat bilan ta'minlash
hamda xizmat ko'rsatish ob'ektlarini tashkil etishning
MAQSADLI KO'RSATKICHLARI**

T/r	Hudud nomi	Yaratiladigan jami ish o'rinlari	Shundan,			Yangidan tashkil etiladigan xizmat ko'rsatish ob'ektlari	Sohada jami auksion savdolariga chiqariladigan yer uchastkalari (soni)	shundan	
			doimiy ishga joylashtirish	tadbirkor- likka jalb qilish	norasmiy ish o'rinlarini rasmiy sektorga o'tkazish			Tadbirkorlik maqsadlari uchun auksionga chiqariladigan yer uchastkalari (soni)	Ko'chma savdo faoliyati uchun auksionga chiqariladigan yer uchastkalari (soni)
	Navoiy viloyati	50 000	21 700	26 130	2 170	1 140	721	311	410
1	Navoiy sh	5 345	2 951	2 236	158	210	28	8	20
2	Zarafshon sh	1 928	1 326	557	45	85	45	10	35
3	G'ozg'on sh	239	136	94	9	15	22	12	10
4	Karmana t	7 783	3 275	4 163	345	155	112	62	50
5	Konimex t	1 667	632	929	106	35	41	21	20
6	Qiziltepa t	9 703	3 805	5 445	453	175	120	65	55
7	Navbahor t	8 372	3 863	4 162	347	140	76	31	45
8	Nurota t	3 201	1 370	1 692	139	40	66	31	35
9	Tomdi t	338	187	141	10	5	20	15	5

10	Uchquduq t	970	674	274	22	35	50	25	25
11	Xatirchi t	10454	3481	6437	536	245	141	31	110

Navoiy viloyati hokimining
2025-yil 30-apreldagi
105-5-0-Q/25-son qaroriga
7-ilova

2025-yilda ommaviy auksion savdolariga chiqarilishi rejalashtirilgan davlat aktivlari hamda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari

T/p	Tuman (shahar)lar nomi	Shundan	
		Ommaviy auksion savdolariga chiqarilishi rejalashtirilgan davlat aktivlari soni	Ommaviy auksion savdolariga chiqarilishi rejalashtirilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari (ga)
Viloyat bo‘yicha jami		46	325,9
1	Navoiy shahri	2	15,0
2	Zarafshon shahri	1	3,0
3	G‘ozg‘on shahri	1	6,4
4	Karmana tumani	3	83,5
5	Konimex tumani	2	7,1
6	Qiziltepa tumani	10	134,4
7	Navbahor tumani	2	25,0
8	Nurota tumani	4	3,0
9	Tomdi tumani	1	9,2
10	Uchquduq tumani	10	5,8

11	Xatirchi tumani	10	33,4
----	-----------------	----	------

Navoiy viloyati hokimining
2025-yil 30-apreldagi
105-5-0-Q/25-son qaroriga
8-ilova

2025-yilda Investitsiya dasturlari doirasida amalga oshiriladigan loyihalar
YIG‘MA PARAMETRLARI

T/r	Hudud nomi	Loyiha soni	Loyiha qiymati mln.doll	Jami ish oʻrni	jumladan										
					Yirik (tarmoq) investisiya loyiha soni	Loyiha qiymati mln.doll	shundan:			Hududiy investitsiya loyiha soni	Loyiha qiymati mln.doll	shundan:			
							Ish oʻrni	Sanoat	Xizmat koʻrsatish			Qishloq xoʻjaligi	Ish oʻrni	Sanoat	Xizmat koʻrsatish
	Navoiy viloyati	545	1 193,5	9220	16	468	745	715	30	529	725,5	8475	4 622	2 425	1428
1	Navoiy sh	72	128,3	1106						72	128,3	1106	716	390	
2	Zarafshon sh	57	30,4	624	1	15	40	40		56	15,4	584	109	475	
3	Gʻozgʻon sh	18	17,9	134	1	10	20	20		17	7,9	114	84	28	2
4	Karmana t	92	625,4	3466	6	368	400	400		86	257,4	3066	1 600	390	1076
5	Konimex t	33	26,1	340	1	3	15	15		32	23,1	325	147	109	69
6	Navbahor t	51	60,3	720	1	9	30	30		50	51,3	690	499	88	103
7	Nurota t	33	63,3	544	2	15	45	45		31	48,3	499	429	54	16
8	Tomdi t	20	58,2	319	1	20	50	50		19	38,2	269	233	24	12
9	Uchquduq t	44	105,4	568	1	20	100	100		43	85,4	468	265	183	20

10 Xatirchi t	40	18,4	354	2	8	45	15	30	38	10,4	309	125	80	104
11 Qiziltepa t	85	59,9	1045						85	59,9	1045	415	604	26

Navoiy viloyati hokimining
2025-yil 30-apreldagi
105-5-0-Q/25-son qaroriga
9-ilova

2025-yilda o‘zlashtiriladigan xorijiy investitsiyalarning maqsadli korsatkichlari

mln.doll

T/r	Tuman (shahar) nomi	2025-yil o‘zlashtirish prognozi	<i>shundan,</i>			
			Manzilli ro‘yxatda			Istiqbolli loyihalar doirasida
			Loyiha soni	jami qiymati	2025 yilda o‘zlashtirish prognozi	
